

YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilning yanvar – martida O'zbekiston Respublikasi YaIM hajmi joriy narxlarda 91 097,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar – marti bilan taqqoslaganda 5,3 % ga o'sdi. YaIM deflyatori indeksi 2018 yilning yanvar – martidagi narxlarga nisbatan 120,4 foizni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga hisoblangan YaIM 2 734,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga yuqoridir.

Yanvar – mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIM ni ishlab chiqarish quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

	<i>Mlrd.so'm</i>		<i>Fizik hajm indeksi, %</i>	<i>YaIM o'sishidagi hissasi, %</i>
	<i>2018 yil</i>	<i>2019 yil</i>		
YaIM – jami	71 875,0	91 097,7	105,3	5,3
<i>shu jumladan:</i>				
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	61 367,5	80 783,7	105,2	4,5
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10 194,1	11 996,0	102,5	0,4
sanoat	18 574,6	27 415,3	106,8	1,8
qurilish	4 068,3	4 907,8	105,9	0,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 888,3	6 891,8	104,2	0,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6 796,3	7 877,2	104,2	0,4
boshqa xizmat tarmoqlari	15 845,9	21 695,6	105,7	1,3
Mahsulotlarga sof soliqlar	10 507,5	10 314,0	105,8	0,8

Iqtisodiy o`shish sur`ati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy dinamika bilan bog`liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (keyingi o`rinlarda – YaQQ) hajmi YaIM umumiy hajmining 88,7 % ini tashkil etdi va 5,2 % ga o`tdi (YaIM mutloq o`shishiga ta`siri 4,5 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 11,3 % ni tashkil etdi va 5,8 % darajasida o`shish qayd etildi (YaIM mutloq o`shishiga ta`siri 0,8 f.p.).

2019 yilning yanvar – mart oylarida
YaIM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha o`shish sur`atlari
(2018 yilning yanvar – martiga nisbatan % da)



YaIM o`shish sur`atiga xizmatlar sohasi eng katta ta`sir ko`rsatdi (2,0 f.p.) va bu soha o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga o`tdi. Shundan, savdo xizmatlari (avtotransport vositalarini ta`mirlashni qo`shgan holda) 4,2 % ga, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar 3,7 % ga, tashish va saqlash 4,6 % ga, axborot va aloqa 2,7 % ga va boshqa xizmatlar 5,7 % ga o`tdi.


Sanoat tarmog`ining qo`shilgan qiymatida 6,8 % lik o`shish qayd etildi. Sanoat ishlab chiqarishining YaIM mutloq o`shish sur`atiga ijobiy ta`siri 1,8 f.p.

darajasida baholandi. Sanoat tarmog`idagi ijobiy dinamika tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog`i qo`shilgan qiymatining 4,8 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat tarmog`i qo`shilgan qiymatining 7,6 % ga va boshqa sanoat tarmoqlarining 5,5 % ga o`shishi hisobiga ta`minlandi.

**Yanvar – mart oylarida
sanoat tarmog`ining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi**

	<i>Mrd.so`m</i>		<i>Fizik hajm indeksi, %</i>
	<i>2018 yil</i>	<i>2019 yil</i>	
Sanoat	18 574,6	27 415,3	106,8
<i>shu jumladan:</i>			
tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	3 946,3	5 974,4	104,8
ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat	13 000,1	18 831,5	107,6
sanoatning boshqa tarmoqlari	1 628,2	2 609,4	105,5

**Yanvar – mart oylarida
sanoat tarmog`ining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**



2019 yilning yanvar – marti yakunlari bo'yicha, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush metallurgiya va metallni qayta ishlash sanoatiga (mashina va uskunalardan tashqari) to'g'ri keldi va 36,7 % ni tashkil etdi. To'qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 14,6 %, oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 13,6 %, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish - 8,7 %, rezina, plastmassa buyumlar va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish - 8,4 %, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar hamda boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish - 6,3 %, elektr uskunalari ishlab chiqarish - 2,8 % va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining boshqa mahsulotlarini ishlab chiqarish - 8,9 % ni tashkil qildi.

Yanvar – mart oylarida ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat yalpi qo`shilgan qiymatining tarkibi

(jamiga nisbatan % da)


	<i>2018 yil</i>	<i>2019 yil</i>
Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - jami	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	14,6	13,6
To'qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	16,9	14,6
Yog'och va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish; yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	2,0	1,7
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	2,1	2,8
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	10,2	8,7
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	1,2	1,1
Rezina va plastmassa buyumlar va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	10,2	8,4
Metallurgiya va metallni qayta ishlash sanoati (mashina va uskunalardan tashqari)	30,3	36,7
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,5	0,3

	2018 yil	2019 yil
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	2,9	2,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	1,4	0,9
Avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	5,3	6,3
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish; mashina va uskunalarni ta'mirlash hamda o'rnatish	2,4	2,1

Qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,9 % ga o'sdi. YaIM ning mutloq o'sishida qurilish tarmog'ining ijobiy hissasi 0,3 f.p. darajasida baholandi.

2019 yilning yanvar – marti yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2,5 % darajasida ijobiy o'sish qayd etildi. Mazkur tarmoqning YaIM mutloq o'sish sur'atiga ta'siri 0,4 f.p. ni tashkil etdi.


**2019 yilning yanvar – mart oylarida
YaIM o'sishida tarmoqlarning hissasi**
(jamiga nisbatan % da)



2019 yilning yanvar – martida YaIM deflyatori indeksi 2018 yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 120,4 % ni tashkil etdi. YaIM deflyatori indeksining eng yuqori ko`rsatkichlari sanoat tarmog`ida (138,2 %) va boshqa xizmatlarda (129,5 %) qayd etildi.

Respublikaning o`rtacha darajasidan past bo`lgan deflyator indeksleri qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida (114,8 %), qurilishda (113,9 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarda (112,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqada (111,2 %) va mahsulotlarga sof soliqlarda (92,7 %) qayd etildi.

2019 yilning yanvar – mart oylarida
YaIM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha deflyator indeksi
(2018 yilning yanvar – martiga nisbatan % da)




O`tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda YaIM tarmoqlari bo`yicha tarkibida qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining ulushi 16,6 % dan 14,9 % ga, qurilishning ulushi 6,6 % dan 6,1 % ga kamaydi, sanoatning ulushi esa 30,3 % dan 33,9 % ga o`sdi.

Xizmatlar sohasining YaIM tarkibidagi ulushi 45,1 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 1,4 f.p. ga kamaydi.

**Yanvar – mart oylarida
YaIM ning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**

2018 yil



2019 yil

